



XALQ DEPUTATLARI JOMBOY TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 25-dekabr

VII-4-018-7-94-K/24

Jomboy tumani

Tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Budjeti kodeksi”ning 126-moddasiga va tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish ishchi guruhining xulosasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to‘rtinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Jomboy tuman mahalliy budjetining 3-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan “Fuqarolar tashabbus jamg‘armasi” uchun 564700,0 ming. so‘m mablag‘lar tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sadullayev)ga budjetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (B.Boyxurozov)ga belgilangan tartibda to‘lovni amalga oshirish hamda tuman hokimligi bosh hisobchisi (I.Uralov)ga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta‘minlash topshirilsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (U.Mamatov) zimmasiga yuklatilsin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Xalq deputatlari Jomboy
tuman Kengash raisi



SOBIROV KAYUM
XAMRAYEVICH